

15-Yanvar, 2026-yil

**MASOFAVIY TA’LIM PLATFORMALARI VOSITASIDA
TALABALARNING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH
METODIKASI.**

S.Sh.Rasulov

TIPU “Axborot texnologiyalari va aniq fanlar” kafedrasida dotsenti

S.H.Xasanov

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarni mutaxassislikka tayyorlashni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ta’limni raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar kompetensiyasini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Ta’limning raqamli transformatsiyasi tendensiyalari sharoitida masofaviy o‘qitish platformalarining (LMS) imkoniyatlari va ular orqali talabalarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Muallif tomonidan masofaviy ta’lim muhitida talabalarning mustaqil ta’lim olishini tashkil etish va ularning kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy-pedagogik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, masofaviy ta’lim, raqamli kompetentlik, raqamli texnologiyalar kompetensiyasi, LMS platformalari, me’yoriy hujjatlar, ta’limni raqamlashtirish, mutaxassislikka tayyorlash.*

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlashni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar va ularning ta’limni raqamlashtirish hamda raqamli texnologiyalar kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha belgilangan shart-sharoitlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan tahlili ayni vaqtda ta’lim sohasidagi islohotlar, zamonaviy raqamli texnologiyalarining rivojlanishi va global ta’lim talablari bilan uzviy bog‘liqdir. Quyidagi tahlil orqali, oliy ta’lim tizimidagi pedagog kadrlarni tayyorlashga oid me’yoriy hujjatlar va ularning raqamlashtirishga qaratilgan ta’siri, shuningdek, raqamli texnologiyalar kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni yuzasidan fikr yuritimiz.

So‘nggi paytlarda davlatimiz tomonidan bo‘lajak pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda oliy ta’lim tizimidagi pedagogik kadrlarning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan yangiliklar va islohotlar mustahkam yo‘nalishda rivojlanmoqda. Davlatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan bu islohotlarning asosiy maqsadi ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish, pedagogik faoliyatda yangi texnologiyalar va o‘qitish metodikalarini qo‘llash orqali ta’limning yuqori samaradorligini ta’minlashdan iboratdir. [1].

Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash va umumiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlarida faol ishlab chiqilgan va qo‘llaniladigan professional standartlar muhim rol o‘ynaydi. Bu standartlar oliy ta’limning natijadorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy malakasini oshirish va ularni zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirishda asosiy ishlash

15-Yanvar, 2026-yil

mexanizmini tashkil etadi. Bugungi kunda professional standartlar, shuningdek, ta‘lim sohasidagi kasbiy faoliyatni zamonaviylashtirish va oliy ta‘lim tizimida yangi maqsadlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. [2].

Ta‘limning raqamli transformatsiyasi tendensiyalari, shubhasiz, zamonaviy ta‘lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu transformatsiya, ayniqsa, o‘qituvchilardan kasbiy faoliyatni amalga oshirishda raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakaga ega bo‘lishni talab qiladi. Ta‘lim jarayonining raqamlashtirilishi har bir o‘qituvchidan texnologik ko‘nikmalarga ega bo‘lishni, zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta‘lim texnologiyalaridan, jumladan masofaviy ta‘lim tizimlaridan foydalanishda muvaffaqiyatli bo‘lishni talab etmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilardan nafaqat nazariy bilimlar, balki ularning amaliy tayyorgarligini ham talab qiladi.

Oliy texnika o‘quv yurtlarida talabalarni an‘anaviy o‘qitish bilan birga, onlayn ta‘lim va aralashtirilgan ta‘limdan foydalanishning samaradorligi ayni paytda diqqatga sazovor tadqiqot mavzusi bo‘lib, bu sohada bir qancha olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar va o‘rganishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy ta‘lim tizimi, shu jumladan, oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitishning an‘anaviy usullariga onlayn va aralashtirilgan ta‘lim metodikalarining joriy etilishi talabalarning bilim olish jarayonini yangi darajaga ko‘tarishga yordam beradi. Bu usullar, pedagogik ta‘limdagi raqamli transformatsiya jarayonining muhim qismlaridan biri bo‘lib, talabalarning fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Fan va texnika jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda, talabalarga nazariy va amaliy ta‘lim berayotgan professor-o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar sohasidagi kompetensiyasi alohida ahamiyatga ega. Bugungi ta‘lim tizimida, o‘qituvchilardan faqat an‘anaviy pedagogik bilim va ko‘nikmalardan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalar vositalari va texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyati ham talab qilinadi. Bu talablar, o‘z navbatida, talabalarga zamonaviy bilimlar, texnologiyalar va kasbiy amaliy ko‘nikmalarni taqdim etishni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyatning har bir sohasida, ayniqsa, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va ijtimoiy faoliyatlarda keng tarqalayotgan muhim vositaga aylandi. raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi va jamiyatga integratsiya qilinayotgani, raqamli tafovutni bartaraf etishga, inson huquqlari va gender tengligini ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Buning natijasida, raqamli texnologiyalar asosida inklyuziv bilimlar jamiyatini rivojlantirish va shunday jamiyatlar tashkil etish imkoni tug‘iladi, ularda har bir shaxs, jumladan, imkoniyati cheklangan fuqarolar ham, teng huquqlarga ega bo‘lishlari va bilim olishda chegaralarsiz ishtirok etishlari mumkin.

Internet tarmog‘ida va jamiyat hayotida ishtirok etish qobiliyati har bir shaxsning ijtimoiy va kasbiy faoliyati uchun muhim bo‘lgan aspektlarga aylanib bormoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar fuqarolik jamiyatining muhim elementlaridan biriga aylanmoqda va ularning ta‘siri har tomonlama seziladi. Raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy

15-Yanvar, 2026-yil

tarmoqlar, elektron hukumat va masofaviy ta’lim kabi sohalardagi texnologik rivojlanishlar fuqarolarga ko‘plab yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar kompetensiyasi mutaxassisning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismidir va bu kompetensiyaning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bugungi ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar kompetensiyasi pedagogik faoliyatning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mutaxassisning zamonaviy talablarga mos bo‘lishi uchun, uning raqamli texnologiyalar sohasidagi bilimlari va ko‘nikmalari barcha bosqichlarda shakllanishi va mustahkamlanishi zarur. Bu, o‘z navbatida, ta’lim muassasalaridagi o‘qituvchilarning samarali ishlashini ta’minlaydi va ularning pedagogik ko‘nikmalarini zamonaviy bilimlar bilan birlashtirishga yordam beradi.

Ushbu standart —ta’lim tashkiloti o‘rta bo‘g‘in mutaxassislari uchun kadrlar tayyorlash dasturini amalga oshirishda elektron ta’lim va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish huquqiga ega, degan e‘lon ham ta’lim tizimining raqamlashtirilishini, ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni har bir ta’lim muassasasi uchun asosiy talablardan biriga aylantirishni nazarda tutadi. Bu standart, oliy ta’lim muassasalari va kasbiy ta’lim tashkilotlariga elektron va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini mustahkamlash, pedagogik jarayonni ravanglashtirish, ta’lim samaradorligini oshirish va talabalarning turli shakldagi bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. [3].

Bugungi kunda axborot texnologiyalarini raqamlashtirish, ya’ni raqamli transformatsiyaning ajralmas qismiga aylangan. Texnologiyalar sog‘liqni saqlashdan to ta’lim, iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlargacha bo‘lgan barcha sohalarda islohotlar olib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar har bir faoliyat sohasida, ayniqsa, kasbiy muammolarni hal qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli asrda axborotga tez va samarali kirishish, ma’lumotlarni tahlil qilish va baxolash, shuningdek, kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan resurslardan foydalanish kerak.

Kasbiy faoliyatini yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ish jarayonlarida ajralmas qismiga aylandi. Zamonaviy ishlab chiqarish muassasasi, ta’limni raqamlashtirish shartlariga javob berish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishda yuqori kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak. Bu, o‘qituvchilar va pedagogik kadrlardan zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan ishlashni talab qiladi. Ishlab chiqarish, ta’lim va boshqa sohalardagi mutaxassislar o‘z kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o‘z maqsadlariga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR:

1. A.A.Abduqodirov, A.Pardaev O‘quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodikasi // —Iqtisodiy ta’lim jarayonida innovatsiyalar: amaliyot va istiqbol. Resp. ilm-amaliy anjumani ma’ruza tezislari to‘plami. 2011 y.
2. M.I.Azizova, G.S.Djamalova O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari —Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. № 3, 2018.
3. A.D.Askarov Masofaviy o‘qitish ta’lim shaklining rivojlanish bosqichlari va modellari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2015 y.№10.